

STILIZATSION FOLKLORIZMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Najimova Xumora

BuxDU adabiyotshunoslik yo‘nalishi II bosqich magistranti

x.d.najimova@buxdu.uz

Annotatsiya: Yozma adabiyotda folkloriga xos motiv, ritm, obrazdan foydalanish, folklor janrini o‘zlashtirish orqali stilizatsion folklorizmni yuzaga keltirish an’anaga aylanib bormoqda. Bu holatning tadqiqi ham amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada stilizatsion folklorizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: stilizatsion, folklorizm, ritm, motiv, janr, ohangdorlik, analitik.

Dunyo yaralibdiki, har bir jon, har bir mavjudot, jamiiyki borliq bir birini boyitib, to‘ldirib keladi. Gulning go‘zalligiga suv va havo sabab bo‘lsa, tabiat ajoyiboti nabodot-u hayvonot sababdir. Daraxtlar quyoshdan nur olib yashnagani kabi, ijod olami ham bir birini boyitib, to‘ldirib keladi. Adabiyotning eng asosiy oziq manbayi xalq va uning ijodiyotidir. Dastavval og‘zaki shaklda yaralgan adabiyotimiz mana necha asrlardirki yozma manbalar uchun poydevor vazifasini o‘tab kelmoqda. Xalqning bor boyligi, so‘zining go‘zalligi adabiyotda namoyon bo‘ladi. Uning gullab yaxshnamog‘ida, taraqqiy topmog‘ida esa xalq og‘zaki ijodi ya’ni folkloarning o‘rnini beqiyosdir.

Yozma adabiyotga folkloarning kirib kelishi turli istilohlar bilan nomlandi. Xususan, “folklordan foydalanish”, “folklor ta’siri”, “folklor an’analari” va “folklorizm” atamalari shular jumlasidandir. Turli baxs munozaralar, olimlarimizning izlanishlari yakuni o‘laroq xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyotga ta’siri, ijodkorning folklordan foydalanish maxorati “Folklorizm” atamasi bilan yuritila boshlandi.

Ijodkor folklor materialidan g‘oyaviy niyati va maqsadiga, qaysi turda ishlatishiga qarab, turlicha yo‘nalish va maqsadlarda foydalanishi mumkin. U xohlasa, folklor materialini shaklan o‘zgartirmay aynan qo‘llashi yoki qayta ishlab, o‘z asarining ruhiga singdirib keltirishi mumkin¹.

Shu kungacha o‘zbek adabiyoti namunalarida uchraydigan folklorizmlarni adabiyotshunos, olima L.Sharipova to‘rt jihatiga ko‘ra tasnif qilgan:

- 1) qo‘llanish davriga ko‘ra: a) mumtoz folklorizm; b) zamonaviy folklorizm;
- 2) qo‘llanish o‘rniga ko‘ra: a) badiiy folklorizm; b) publitsistik folklorizm;

¹ Sharipova.L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B.144.

3) folklorizmlarning sifatiga ko‘ra: a) oddiy folklorizm; b) murakkab folklorizm;
 4) qo‘llanish yo‘nalishi va vazifasiga ko‘ra: a) uslubiy-nutqiy folklorizm; b) kompozitsion folklorizm; v) ijtimoiy-etnografik folklorizm. Oxirgisi A.A.Gorelov tasnifiga asoslangan¹.

Biz o‘rganayotgan stilizatsion folklorizmlar murakkab folklorizmning bir turi bo‘lib, adabiyotshunos, olim, B.Sarimsoqov murakkab folklorizmlarni tabiatini va vazifasiga qarab: a) analitik folklorizm; b) sintezlashgan folklorizm; v) stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar tarzida uch guruhga bo‘ladi².

Analitik folklorizmlar asarning badiiy to‘qimasi, uning yetakchi g‘oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jixatidan xarakterlansa, sintezlashgan folklorizmlar o‘zaro chirmashib, qorishib ketishni ifodalaydi. Sintezlashgan folklorizm yuzaga kelishi uchun tanlangan folklor materiali asar syujetiga singib ketishi lozim. Analitik folklorizm asardan olib tashlansa ham, asar mohiyatiga jiddiy zarar yetmaydi, lekin asardagi o‘ziga xos jozibaga sezilarli putur yetadi. Kitobxon ruhiga tasir qiluvchi vositalardan biri boy beriladi, biroq asar g‘oyasi. mazmuni, syujetida jiddiy o‘zgarish bo‘lmaydi.

Folklordan yozma adabiyotga ko‘chgan janr, motiv, obraz ritm kabilalar o‘zlashtirilib yoki aynan qo‘llanilishidan qat’iy nazar, folklorligini yo‘qotib, adabiyotning tarkibiy uзвига aylanadi, ya’ni folklorizmni yuzaga keltiradi. Ijodkor folklor materialiga ishlov berishi jarayonida rang-barang shakllar yuzaga keladi, uslub xilma-xilligi kelib chiqadi. Shu asosda stilizatsion folklorizmning ichki ko‘rinishlari shakllanadi. “Stilizatsiya” so‘zi “uslubga monandlik”, “unga o‘xshatib asar yaratish” degan ma’nolarni ifodlaydi³.

Analitik va sintezlashgan folklorizmda ijodkor folklor materialidan aynan foydalansa, stilizatsion folklorizmlarda aynan takror emas, balki xalqona usul, xalqona uslub yetakchilik qiladi. Bunday usulda yaratilgan asarlar bizga xalq usulini, xalqona shaklni yodga solishi bilan xarakterlanadi. Stilizatsion folklorizmlar yozuvchi, shoir mahoratini, uning xalq ijodi bilimdoni ekanligini belgilovchi muhim vosita desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ijodkor xalq og‘zaki ijodiga mansub janr, motiv, ohang yoki obrazni o‘z usulida, yangicha uslubda qayta yaratar ekan u nafaqat yozma adabiyot rivojiga balki, og‘zaki adabiyot umrboqiyligiga ham o‘z hissasini qo‘shgan hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodiga mansub asar syujeti, mazmuni, shakli, ohangi aynan saqlanib, yangicha usulda, shaklda yaratilgan asarlar stilizatsion folklorizmlarni

¹ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 35.

² Sarimsokov B. Folklorizmlar tiologiyasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. 1980. № 4. 42-44-betlar

³ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 21.

vujudga keltiradi. Yozma adabiyotimizda folklorizmlarning barcha turini uchratishimiz mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan folklorizm va uning turlari, badiiy adabiyotda aks etishi turli tomonlardan tadqiq qilindi.

Adabiyotshunos I.Yormatov o‘zining “Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar” nomli maqolalarida stilizatsion folklorizmlarni murakkab folklorizmlarning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri sifatida e’tirof etadi. Ularning fikricha, stilizatsiya jarayonida yozuvchi folklorshunoslik qonuniyatlariga qat’iy amal qilishi, folklor materialining g‘oyaviy-kompozitsion butunligiga putur yetkazmasligi, folkloriga xos rivoyaviy bayon uslubini o‘zgartirmasligi lozim¹.

Ammo, adabiyotshunos, olima L.Sharipovaning fikricha, o‘zlashtirish chog‘ida janr tanlash erkinligi va huquqi saqlanadi. Shuning uchun ijodkor o‘zi tanlagan xalq ertagi syujetini xohishiga qarab, yo ertak, yo doston shaklida qayta ishlashi mumkin. Folklor materiali janrining o‘zgarishi esa uning kompozitsion butunligini ham o‘zgarishga olib keladi. Hatto buning oqibatida an’anaviy janrni takrorlamaydigan yangi oraliq janr paydo bo‘lishi kuzatiladi. Agar epik turdagи folklor materialiga dramatik asar sifatida ishlov berilsa, folkloriga xos epik bayon uslubiga, albatta, putur yetadi. Olima I. Yormatovning bu boradagi nazariy fikri yozma adabiyotda mavjud misollar mohiyatiga to‘la-to‘kis mos kelmasligini, mavjud asarlardagi stilizatsiya holati juda rang-barangligi bois stilizatsiya xarakteridagi folklorizmni bu qadar chegaralash o‘rinli emasligini ta’kidlaydi².

I.Yormatov stilizatsion folklorizmlarni ikki turga bo‘lib tasnif qiladi: 1. Progressiv (ijobiylar xarakteridagi) stilizatsiya. 2. Regressiv (salbiylar xarakteridagi) stilizatsiya.

Progressiv (ijobiylar xarakteridagi) stilizatsiyada ijodkor folklor asarining syujet va motivlariga erkin yondashib uni qayta ishlaydi. Uning mazmunini rivojlantirish, syujet va obrazlarni boyitish imkoniga ega.

Regressiv stilizatsiyada ijodkor folkloriga xos asar materialini shaklan kengaytirib, asar g‘oyasini aynan saqlaydi, unga o‘z g‘oyasini singdirmaydi. Shu bois bu usul salbiylar xarakteridagi stilizatsiya ham deb yuritiladi.

Adabiyotshunos, olima L.Sharipova stilizatsion folklorizmlar folklor janrlari (doston, ertak, afsona, rivoyat, ko‘sik, yig‘i, yo‘qlov, alla kabilar)ning asosiy motivlari va badiiy shaklini ifoda uslubini hamda ularga aloqador yuksak g‘oyaviy motivlarni, an’anaviy epik obrazlarni, ko‘tarinki ritmni ijodiy o‘zlashtirish natijasida yuzaga keladi, deya ta’kidlaydi va stilizatsion folklorizmlarni shu asosda to‘rt turga

¹ Yormatov I. Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar // O‘zbek adabiyoti. 1984. №3 - B. 31.

² Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 87.

bo‘ladi: 1. Janr stilizatsiyasi. 2. Motiv stilizatsiyasi. 3. Obraz stilizatsiyasi. 4. Ritm stilizatsiyasi¹.

Xalq og‘zaki ijodiga xos janr ijodkorlar tomonidan o‘zlashtirilib, uni yozma adabiyotga olib kirilishi janr stilizatsiyasini vujudga keltirdi. Bilamizki, janr o‘zlashuvi har ikki adabiyotda ham yuz beruvchi jarayondir, ya’ni og‘zaki adabiyot ham, yozma adabiyot ham o‘zaro janr almashib kelganlar.

Folklor janrlarining o‘zlashuvi turli jihatlardan talqin qilingan. Jumladan, O.Safarov, T.Abdikulov kabi olimlar ertak janrining yozma adabiyotda o‘zlashuvi, adabiy ertakning turli ko‘rinishlarini yuzaga keltirganligi haqida fikr yuritadilar². O.Safarov e’tiroficha, folkloridagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda asosan ikki yo‘nalish ustuvordir:

Birinchi yo‘nalish – folklor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarni) bolalalr yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishslash yoki tabdil (interpretatsiya) qilish. Buning bosh sharti asarning xalqona ruhiga putur yetkazmagan holda g‘oyaviy- badiiy barkamolligini ta’minalash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi.

Ikkinchi yo‘nalish – folklor syujetlari asosida she’riy, nasriy va drammatik asarlar yaratish yoki stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. Bu yo‘nalish barcha xalqlar bolalar adabiyoti ravnaqida yetakchi omillardan hisoblanadi³.

Adabiyotshunos N.Sharopova og‘zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili haqida fikr yuritib, “Xalq she’riy shakllariga murojaat tamoyili haqiqiy ma’nodagi ijobili hodisa”, – deb e’tirof qiladi⁴. L.Sharipova yozma adabiyotda dastlab doston, maqol, topishmoq, yo‘qlov, yig‘i, keyinchalik yor-yor, alla kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan deb hisoblaydi va doston janri stilizatsiyasining debochasi deya “Qutadg‘u bilig” va “Hibat-ul haqoyiq” asarlarini e’tirof etadi⁵. Xalq dostonlari bilan yozma dostonlar orasida jiddiy o‘xhashlik va tafovutlar bor. Bu o‘xhashlik va tafovutlar turli davrlarda turlicha kechdi.

Yozma adabiyotimizga ertak, doston, naql, afsona, rivoyat, qo‘sinq, alla, yor-yor, o‘lan, lapar, aytishuv, yig‘i yo‘qlov, marsiya, topishmoq, tez aytish, hukmlagich, erkalam, askiya, latifa kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan.

Xalq ijodiga xos bo‘lgan motivlarni ijodiy o‘zlashtirish motiv stilizatsiyasini vujudga keltiradi. Ijodkor o‘z asarida folkloriga xos oshiq-ma’shuqlik,

¹ Sharipova L. O’sha manba. – B. 88.

² Safarov O. Folklor va bolalar adabiyoti // O‘zbek tili va adabiyoti. 2003. №6. 20-26-betlar. Abdikulov T. Bolalar poemachiligi va xalq og‘zaki ijodi / O‘zbek tili va adabiyoti. 1975. №5 29-34-betlar

³ O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova. Bolalar adabiyoti. Buxoro. Durdona nashriyoti, 2019. – B. 174.

⁴ Sharopova N. Og‘zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili// O‘zbek tili va adabiyoti. 1998. №2. 28-32-betlar.

⁵ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 90.

qahramonlarning g‘ayritabiiy tug‘ilishi, farzand tilab sarson-sargardonlik, toj-u taxt, boylik taqsimoti, yoxud yor izlab yo‘lga tushmoq, ovga, safarga chiqmoq, tush ko‘rmoq, o‘gaylik, yetimlik, xalqqa xos urf-odatlar, turmush tarzi bilan bog‘liq bir qancha motivlardan ijodiy foydalanar ekan, asarga xalqona ruh va go‘zallikni ham singdiradi. Barchamizga ma’lum bo‘lgan xalq ertaklari, dostonlari-yu afsonalariga xos bo‘lgan bunday motivlar yozuvchilar tomonidan juda keng foydalanib kelingan.

T.Mirzaev “motiv” istilohini ikki ma’noda qo‘llaydi va dostonlarda el-u yurtga muhabbat motivlari urug‘ birligi g‘oyasi bilan birlashib ketishini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda “motiv” “mavzu”, “g‘oya” ma’nosini ifodalaydi. Shu tadqiqotning o‘zida motiv syujetning bir bo‘lagi sifatida ham e’tirof etiladi. “Alpomish” eposining syujet sostavini atroflicha qarab chiqishda uning motivlari haqida fikr yuritish, doston syujeti to‘qimasidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash ham muhim rol o‘ynaydi”, – deb yozadi olim¹. Zero, “motiv” fransuzcha so‘z bo‘lib “tema, mavzu”, ayni chog‘da, “ohang, kuy” ma’nolarini ham anglatadi². Adabiyotshunoslik istilohi sifatida “syujet tarkibidagi xalqalardan biri” yoki asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini to‘ldirishga xizmat qiluvchi qo‘srimcha mavzu yoki g‘oyaviy yo‘nalish ma’nosini anglatadi. Aytaylik, xalq og‘zaki ijodida qahramonning g‘ayritabiiy tug‘ilishi yoki ovga yo safarga chiqishi alohida-alohida motivlar bo‘lib, an’anaviyligi bilan diqqatni tortadi. Demak, “motiv” istilohi ham g‘oya, ham syujetning bir bo‘lagi ma’nosida ishlataladi.

L.Sharipova XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida uchrovchi folklorizmlarni taddiq qilar ekan, ushbu davr she’riyatida folkloriga xos motivlarning stilizatsiya qilinganligini quyidagicha turlarga bo‘lib tasnif qiladi:

- 1) dostonga xos motivlar stilizatsiyasi;
- 2) ertakka xos motivlar stilizatsiyasi;
- 3) xalq hayoti, turmush tarzi bilan bog‘liq motivlar stilizatsiyasi³.

Olima dostonga xos motivlar stilizatsiyasini eng ko‘p uchrovchi turi sifatida e’tirof etadi. “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlarning motivlari ijodkorlar tomonidan salmoqli darajada stilizatsiya qilinganligini misollar orqali keltirib o‘tadi. Ertakka xos motivlar stilizatsiyasi haqida fikr yuritar ekan, shoirlar ko‘proq uch og‘ayni botirlar bilan bog‘liq motivlarga murojaat qilishganini ta’kidlaydi. Xalq hayoti, turmush tarzi bilan bog‘liq motivlar stilizatsiyasiga to‘xtalar ekan, ularni etnografik motivlar deb ataydi va bunday motivlar ko‘proq xalqning irimlari, urf-odatlar, ijtimoiy hayoti bilan bog‘liqligini e’tirof etadi.

¹ T. Mirzayev. "Alpomish" dostonining o‘zbek variantlari. Toshkent:Fan, 1968 91-93-betlar.

² Ruscha-o‘zbekcha lugat. 2 томлик. Т. 2. Toshkent : O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1984. - B. 573.

³ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 111.

Bir so‘z bilan aytganda motiv stilizatsiyasi o‘quvchini ham izlanishga xalq ijodi bilan tanishishga undaydi, qolaversa, ijodkorning badiiy maqsadiga ko‘rk bag‘ishlaydi, adabiyotni boyitadi, ifoda uslubini go‘zallashtiradi.

Xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan obrazlardan yozma adabiyotda foydalanish obraz stilizatsiyasini vujudga keltiradi. Ijodkor folkloriga xos bo‘lgan obrazlardan o‘z ijodiy niyati va g‘oyasi yo‘lida foydalanar ekan, undan aynan nusxa ko‘chirmay, har qanday obrazdan o‘z maqsadi yo‘lida erkin foydalanmog‘i, unga o‘z ijodiy niyatini singdirmog‘i lozim. Yozma adabiyot folklor obrazidan foydalansa, aynan o‘xshatish asosida obrazni ko‘chiradi. Ammo identifikatsiya shunchaki nusxa ko‘chirish bo‘lmay, ijodkor folklor obrazini o‘z maqsadi yo‘lida xizmat qildirishini anglatadi.

“Obraz identifikatsiyasi” tushunchasidan kelib chiksak, folklor obrazlarining yozma adabiyotga ko‘chishini stilizatsion folklorizm deb hisoblash mumkin¹. Adabiyotshunos L.Sharipova folklor obrazlari stilizatsiyasi haqida fikr yuritar ekan, to‘rt xil ko‘rinishga ega deya tarmoqlaydi:

1. Epik obrazlar stilizatsiyasi.
2. Ramziy obrazlar stilizatsiyasi.
3. Mifologik obrazlar stilizatsiyasi.
4. Dramatik tur janrlari obrazlari stilizatsiyasi².

Epik turga mansub doston, ertak, asotir, afsona, rivoyat, naql, latifa janrlariga xos obrazlarni yozma adabiyot asrlar davomida ijodiy o‘zlashtirib, o‘z adabiy obraziga aylantirib, folklor obrazlariga yangicha ruh, yangicha vazifa yuklamoqda. Rivoyatlar, afsonalar obrazlari sifatida To‘maris, Kir, Spitamen, Shiroq, Layli, Majnun, Shirin, Tohir, Zuhro kabi obrazlar yozma adabiyot tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lsa, doston qahramonlari sifatida Go‘ro‘g‘li, Alpomish, Barchin, Hasanxon, Avazxon, Gulqiz, Qaldirg‘och, Qorajon, Boychibor, G‘irot kabi obrazlar stilizatsiya qilindi. Latifa qahramonlari Kal, Nasriddin Afandi, Aldar ko‘sa; ertak qahramonlari To‘ng‘ich botir, O‘rtancha botir, Kenja botir, Zumrad, Qimmat, No‘xotpolvon kabi qahramonlar yozma adabiyot g‘oyalarini tashishda xizmat qilgan bo‘lsa, xalq qo‘shiqlaridagi ramziy obrazlar yozma she’riyatga xos poetik obrazlarni yuzaga keltirishda poydevor bo‘layotir.

Xalq qo‘shiqlarida daraxt, soch, terak, choy, suv, daryo, gul, olov, shu’la kabi yuzlab ramziy obrazlar orqali lirik qahramon ruhiyati ohib berilgan bo‘lsa, yozma she’riyatda bu obrazlar o‘zlashtirilganda ularning haqiqiy mohiyati goh saqlab qolindi, goh boshqa vazifa va boshqa ma’noda talqin qilindi³.

¹ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 121.

² Sharipova L. O’sha manba. – B. 121.

³ Sharipova L. O’sha manba. – B. 122.

Mifologik obrazlar sifatida, dev, pari, ajdaho, yalmog‘iz kampir, sehrli kuchlar va farishtalar, yovuz maxluqlar, yengilmas pahlavonlarni aytishimiz mumkin. Drammatik turga xos bo‘lgan obrazlar, epik obrazlar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Biz bilgan ko‘plab doston va ertaklar, latifalar sahnalashtirilgan bo‘lib, ularda ishtirok etuvchi obrazlar ham stilizatsiya qilingandir.

Folklor obrazlarining yozma adabiyot tomonidan o‘zlashtirilishi, ijodkor fikrining, maqsad va g‘oyasining chuqurroq, teranroq anglanishiga xizmat qiladi. Folklor obrazlari yozma adabiyot obrazlar olamini yanada boyitishga xizmat qiladi. Obraz stilizatsiyasi odatda motiv, janr stilizatsiyasi bilan yonma-yon tarzda qo‘llaniladi.

Ijodkorlarning xalqona ohangda ijod qilishga bo‘lgan intilishi, xalq yo‘lida, xalqona usulda asar yaratishi, shoirlarning xalq qo‘shiqlari, xalq ohanglari ta’sirida yaratgan she’rlari ritm stilizatsiyasini vujudga keltiradi. Ritm stilizatsiyasi stilizatsion folklorizmlar orasida eng ko‘p uchrovchi turi hisoblanadi.

L.Sharipova o‘z monografiyasida ritm stilizatsiyasi ikki xil yo‘l bilan hosil qilinishini ta’kidlaydi:

1. Bilvosita yuzaga kelgan folkloriy ritm stilizasiyasi.
2. Bevosita yuzaga kelgan folkloriy ritm stilizasiyasi.

Bilvosita yuzaga kelgan folkloriy ritm stilizatsiyasi tazmin bog‘lash yoki janr stilizatsiyasi jarayonida yuzaga keladi. Shoirlar xalqning biror asariga tazmin bog‘lar ekan, undagi ritmikani ham stilizatsiya qiladi. Shoirlar xalq dostoni va xalq qo‘shig‘i ritmini stilizasiya qilishi mumkin. Shoirlar dostondan, xalq qo‘shiqlaridan bayt yoki satr keltirib, uni davom ettiradi. Oqibatda folkloriga xos ritm stilizatsiyasi bilvosita yuzaga keladi.

Bevosita yuzaga keladigan folkloriy ritm stilizatsiyasi haqida fikr yuritish bir muncha mushkul. Negaki, folkloriy ritm manbayi aniq bo‘lmasa, uni his qilish mumkin, ammo izohlash oson emas. O‘ynoki yoki mungli ritmni xalq she’riyatida vazn, so‘z takrori, tovush takrori, turli sheva unsurlari, epik obrazlar, folkloriy ruh kabi bir qator vositalar yuzaga keltirar ekan, yozma she’riyat ulardan foydalansa, folkloriy ritm bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri stilizatsiya qilinadi¹.

Ritm stilizatsiyasi badiiy asarni xalqqa, uning qalbiga, yurak-yuragigacha yetib borishini ta’minlovchi yetakchi omillardan biridir. Xalqona soddalik, o‘ynoqilik asarga o‘zgacha ruh va joziba bag‘ishlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, stilizatsion folklorizmlar xalqona ohang, obraz, motiv va janrning ikkinchi umri, ikkinchi hayotining boshlanishidir. Bu jarayonni xalqdan olib, qayta ishlab, yana xalqqa bermoq deb ta’riflash mumkin.

¹ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. 141-143-betlar.

Folklorga xos uslubda yaratilgan asarlar o‘zining go‘zalligi, jozibasi, xalqonaligi, ko‘ngilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shu bois bunday asarlarning o‘quvchisi ham, ishtiyoqmandi ham bisyor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiqulov T. Bolalar poemachiligi va xalq og‘zaki ijodi / O‘zbek tili va adabiyoti. 1975. №5 29-34-betlar
2. Safarov O. Folklor va bolalar adabiyoti // O‘zbek tili va adabiyoti. 2003. №6. 20-26-betlar.
3. O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova. Bolalar adabiyoti. Buxoro. Durdona nashriyoti, 2019. – B. 174.
4. T. Mirzayev. "Alpomish" dostonining o‘zbek variantlari. Toshkent:Fan, 1968 91-93-betlar.
5. Yormatov I. Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar // O‘zbek adabiyoti. 1984. №3 – B. 31.
6. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – 153 b.
7. Sharipova L. She’riyat va folklor. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 204 b.
8. Sharopova N. Og‘zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili// O‘zbek tili va adabiyoti. 1998. №2. 28-32-betlar.
9. Ruscha-o‘zbekcha lugat. 2 tomlik. T. 2. Toshkent : O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1984. - B. 573.